

---

## OLTIARIQLIKLAR HAM HAYIT NAMOZINI ADO ETDILAR

2 may kuni erta tongda O'zbekiston masjidlarida Ramazon hayiti munosabati bilan bayram namozi o'qildi. Jumladan, Oltiariqdagi jo'me masjidlarda ham Hayit namozi ado etildi.

Namozxonlarga qulaylik yaratish maqsadida barcha zarur ishlar amalga oshirildi. Masjidlarga tutash ko'chalar vaqtincha yopilib, namozxonlar uchun joy ajratildi. Ichki ishlar, sog'liqni saqlash va boshqa mutasaddi idoralar vakillari navbatchiligi tashkil etildi.

Ayyom arafasida bayramni munosib kutib olishga o'ziga xos taraddud ko'rildi. Aholi yashash joylari, ko'chalar, xiyobonlar, masjidlar, muqaddas qadamjolar, qabristonlar hamda ularning atrofi tartibga keltirilib, obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Albatta, bunday xayrli amallar xalqimiz o'rtasida mehr-oqibat rishtalari hamda tinchlik-totuvlik, o'zaro hamjihatlik muhitining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Oltiariq tumani hokimligi Axborot xizmati.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-03 10:31:16